

## **O'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARI VA ZO'RAVONLNING OLDINI OLISH**

**Yodgorov Ismoil Akmal o'g'li**

TDYU huzuridagi Samarqand  
akademik litsey talabasi

Telefon: +998 (91)733-05-15

[yodgorovismoilakmalovich@gmail.com](mailto:yodgorovismoilakmalovich@gmail.com)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining qonuchiligida bola huquqlari va jamiyatda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oqibatlari chuqur ko'rib chiqiladi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning asosiy ko'rinishlari va sabablari yoritilib, jamiyatda bu kabi qabih xatti-harakatlar sodir bo'lishini bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasida bola huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorlik doirasidagi sa'y-harakatlar batafsil tahlil etilgan. Xulosa qismida bolalarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etishda huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tamoyillarning uyg'unligi muhim ekanligi qayd etiladi. Maqola o'z navbatida, jamiyatda bolalarning yetuk va barqaror rivojlanishiga intilayotgan har bir shaxs uchun ahamiyatlidir.*

***Kalit so'zlar:** bola huquqlari, zo'ravonlik, BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi, xalqaro hamkorlik, fuqorolik jamiyati, huquqiy madaniyat.*

### **KIRISH**

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik bu jamiyatda bolalarning berqaror rivojlanishiga jiddiy ta'sir o'tkazuvchi ijtimoiy illatdir. Ushbu tushuncha odatda, kuchli insonlarning zaif bolalarga nisbatan majburiy mehnatga jalb qilish, bolalarga nisbatan samasud va ulardan o'z manfaati yo'lida noqonuni foydalanishi sifatida izohlanadi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik bu shunchaki yomon illatlardan biri yoki jinoyat emas, u bolalarning ham ruhan ham jismonan sog'lom rivojlanishini sekinlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

BMT bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrida bir ovozdan qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiya—bolalar huquqi to'g'risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo'lgan ilk hujjat hisoblanadi. Bu hujjatning asosiy g'oyasi kelajakka qaratilgan. O'z navbatida bu hujjat ham bola huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash yo'lida xizmat qiladi. Ushbu hujjat bolaning shaxsi sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamoloti uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o'sishi zarurligini e'tirof etgan.

Ushbu qonunning 13-moddasi 1-bandida: "Bola o'zining fikrini erkin ifodalash huquqiga ega: bu huquq har qanday turdagi axborotni, chegarasidan qat'iy nazar, og'zaki, yozma yoki bosma shaklda, san'at asari ko'rinishida yoki bolaning tanloviga ko'ra boshqa vositalar yordamida izlash, olish va uzatish erkinligini o'z ichiga oladi" - deyilgan. Shu kabi O'zbekiston Respublikasida ham bola huquqlari qonunda qat'iy belgilab qo'yilgan. Isbot tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-

moddasi 2-bandida, 50-moddasida va 77-78-moddalarida bolalarning huquqiy erkinliklari va huquqlari aniq belgilan qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 78-moddasida "Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" — deyilgan.

So'ngi yillarda davlatimiz tomonidan bajarilayotgan chora-tadbirlar va o'rnatilayotgan majburiyatlar bolalarning huquqini qat'iy mustahkamlashga qaratilgan. Shu yo'sinda O'zbekiston bola huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 31-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2024-yil 15-avgustda ma'qullangan va tez kunlarda kuchga kiritilishi ko'zda tutilayotgan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi - O'zbekistonda demokratiya va qonunning ustunligi va bolalarga bo'lgan e'tiborning kuchliligini anglatadi.

#### **XULOSA**

Mazkur maqolada bolalarga nisbatan zo'ravonlikning salbiy oqibatlarini va uni oldini olish uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar yoritildi. Xususan, BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy tamoyillari tahlil qilindi.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishda huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, milliy qadriyatlar va xalqaro standartlarga asoslangan samarali siyosat olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan bolalarning jismoniy, aqliy va madaniy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni har qanday shakldagi zo'ravonlikdan himoya qilishni kafolatlash mas'uliyati qat'iy belgilab qo'yilgan.

Maqolada keltirilgan tahlillar va amaliy chora-tadbirlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi sa'y-harakatlarini izchil davom ettirmoqda. Xususan, yaqinda qabul qilinadigan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun mamlakatda bola huquqlarini ta'minlash va jamiyatda insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashga katta hissa qo'shadi.

Kelajakda, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tamoyillar uyg'unligida amalga oshiriladigan ishlar orqali bolalarning barkamol rivojlanishi va jamiyatda barqarorlikni ta'minlash yanada yuqori darajaga ko'tariladi. Shu bois, mazkur masalaga davlat, jamiyat va har bir shaxs birdek e'tibor qaratishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent, 1992-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni – 2024-yil, Qonunchilik palatasi va Senat materiallari.
3. BMT “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi – 1989-yil 20-noyabr.
4. Qonunchilik palatasi va O'zbekiston Respublikasi Senati rasmiy materiallari – [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)
5. Yusupov A. “Bola huquqlari: qonunchilik va amaliyot” – Toshkent: Adolat, 2021-yil.
6. Bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari – UNICEF va UNODC rasmiy saytlaridan olingan hisobotlar.
7. Karimov M. “Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyatni oshirish” – Toshkent: Sharq, 2019-yil.
8. Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari – [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

ACADEMIC BOOK